
Terimchi otaxon

Shu kunlarda tumanimiz dalalarida dehqonlarimiz mashaqqatlari evaziga yetishtirilgan paxta hosilini yig'ishtirib olish ishlari jadallik bilan olib borilmoqda. Mirishkor dehqonlarning mehnatlarining samarasi bugun dalalar oq oltinga aylangan.

Rishton tumanida paxta yig'im-terim mavsumi uyushqoqlik bilan amalga oshirilmoqda. Hosilni yig'ishtirib olishda ilg'or, g'ayratli terimchilar namuna bo'lishmoqda.

Ana shundaylardan biri qayrog'ochlik 63 yoshli Sharofiddin hoji Boyigitovdir.

Nuroniyl otaxon yoshlarga namuna ko'rsatib kuniga 140 kilogrammdan ortiq paxta terib, rejaning bajarilishiga o'zining munosib hissasini qo'shmoqda.

2022-10-06 19:01:52